

## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARINI SAVOD O'RGANISHGA TAYYORLASH

Xalilova Dilnoza Furqatovna

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lism" fakulteti kafedrasи o'qituvchisi

Normamatova Yulduz Farhod qizi

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lism" fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7378190>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbiyachilariga barkamol avlod tarbiyasida nutqni to'g'ri shakillantirish yo'llari va ish samaradorligi, savod o'rganishda, shu jumladan, og'zaki nutqni rivojlantirish, muloqot qila olishga o'rgatish jarayonlari yuzasidan o'rganilgan adabiyotlardan olingan bilimlar asosida tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** savodga o'rgatish, muloqot, intellektual salohiyatli, ijodiy-rivojlantiruvchi muhit, tayyorgarlik davri, og'zaki nutq.

## ПОДГОТОВКА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К ОБУЧЕНИЮ ГРАМОТНОСТИ

**Аннотация.** В данной статье изучены методы правильного формирования речи и работоспособности в воспитании зрелого поколения воспитателей дошкольной образовательной организации, в том числе развитие устной речи, и процессы обучения общению. дается на основе знаний, полученных из литературы.

**Ключевые слова:** обучение грамоте, общение, интеллектуальный потенциал, творчески-развивающая среда, подготовительный период, устная речь.

## PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR LITERACY

**Abstract.** In this article, the methods of correct formation of speech and work efficiency in the education of a mature generation for the educators of the preschool educational organization, including the development of oral speech, and the processes of teaching to communicate, were studied. recommendations are given based on the knowledge obtained from the literature.

**Keywords:** literacy training, communication, intellectual potential, creative-developing environment, preparatory period, oral speech.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, intellektual salohiyatlatli avlod va unga ta'lism-tarbiya berish sifatiga bog'liq. Shu bois, Vatani, xalqni sevadigan, istiqlol g'oyalariga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni yetishtirish davlatning ta'lism sohasidagi siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biridir. Shuning bilan birga ta'lism tizimidagi tub islohotlar orqali shaxs ma'naviy kamolotini ta'minlash mazkur yo'nalişning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, bu haqida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lism to'g'risida»gi qonunida ta'lism tizimini tubdan isloh qilish, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash davlat ahamiyatiga molik muhim vazifalardan biri ekanligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining "Buyuk kelajagimizni mard va ollyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" kitobida "O'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama yetuk rahbar oldida dolzarb vazifa kelgusi avlodni komil inson qilib tarbiyalash vazifasi turibdi" degan fikrni e'tirof etadilar. Ayni shu so'zlardan kelib chiqqan holda aytish kerakki, maktabgacha ta'lism umuman olganda uzliksiz ta'larning birinchi bosqichi hisoblanib, u maktabda o'qish uchun tayyor bo'lgan sog'lom va to'laqonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Maktabgacha tarbiya o‘qituvchilari bolalarni og‘zaki va yozma til bilan doimiy ravishda tanishtirish, oldingi bilim va til tajribasiga tayanish orqali savodxonlikni rivojlantiradilar. Rasmlar, o‘yin va bosma so‘z og‘zaki til bilan uyg‘unlashib, bolangizga maktabgacha o‘qish va yozish asosidagi ramziy tasvirni tushunishga yordam beradi. Uning o‘qituvchisi maktabgacha yoshdagi o‘qishni rivojlantirish uchun sinfda turli xil qiziqarli va qiziqarli strategiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Savodxonlikni har kunning bir qismiga aylantirish juda foydalidir. Shuningdek, bolalar xavfsiz tajriba va o‘z dunyosini kashf qilish imkonini beruvchi bevosita tajribalarni qo‘llash kerak. Har bir bola o‘ziga xos vaqt oralig‘ida til ko‘nikmalarini o‘rganadi va rivojlantiradi, ammo barcha yosh bolalarga quyidagilar kerak:

- \* Rivojlanayotgan ko‘nikmalarni rivojlantirish va amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari;
- \* Rag‘batlantirish va harakat uchun maqtov;
- \* Doimiy o‘rganish oilaviy qadriyat ekanligini tushunish;
- \* Ota-onalar va boshqa g‘amxo'rlik qiluvchilar uning rivojlanishiga mos keladigan o‘quv faoliyatini rejalashtirishga yordam berishi;
- \* O‘qish va amaliy mashg‘ulotlar uchun maxsus joy.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bola nutqining rivoji ko‘p jihatdan uning ruhiyatiga, sog‘lom, tetik o‘sishiga, axloqiy sifatlariga o‘quv dasturini o‘zlashtirishda me’yorli bajarilishini ta’minalashiga, qo‘llanmalarning monandligiga bog‘liqdir. Bu masalalar maktabgacha ta’limda o‘z yechimi ifodasini topishi va o‘z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur.

Bolalarning aqliy jarayonini rivojlantirish uchun ularning nutqini o‘stirish zarur: Bola har bir so‘z ma’nosini tushuna olishi uni o‘z nutqida erkin ifodalashga muvofiq bo‘lishi kerak. Tushunchalar tizimiga moslashgan bola o‘z fikrini jamlab gapirishga va ifodalab berishga o‘rganadi.

Og‘zaki nutqni o‘stirish bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda, asosan, bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirishga, nutqni grammatik tomonidan to‘g‘ri shakllantirishga, nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish: sodda va qo‘shma gaplar tuzish, bunda barcha so‘z turkumlaridan foydalanishga o‘rgatish, bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe’lga to‘g‘ri ishlatish malakalarini takomillashtirish, tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishga, ravon gapirishga, mustaqil hikoya qilishga e’tibor beriladi. Og‘zaki nutqini o‘stirishda mustaqil hikoya qilishga o‘rgatish katta o‘rin egallaydi. Bolalarni o‘z hayotlarida uchragan voqealar, suratlarga qarab, tarbiyachining taklif qilgan mavzusi asosida hikoyalalar tuzishga o‘rgatiladi. Tayyorlov guruh bolalarining hikoyalari mazmunan bog‘langan, ma’lum izchillikda, grammatik tomonidan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi kerak.

Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o‘zlashtirishga yordam beradi, buning asosida uning bilish, ko‘rgazmali, o‘yin, eng oddiy mehnat va o‘quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek, muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o‘zlashtirib, faollik ko‘rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan bog‘liq bilimlar, malaka, ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi, shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi. Bolaning faoliyatdagi mavqeい uni faqat tarbiya ob‘yektiga emas, shu bilan birga tarbiya sub‘yektiga ham aylantiradi. Bu bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Bolalarning rivojlanishi

va tarbiyalanishining yosh bilan bog'liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo'ladi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi, lekin bunda ularning roli, bir xil bo'lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo'ladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzusi, vositalari, buyumlar bilan birga amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi. Bola faoliyatining xilma-xilligi va boyligi, uni egallahdagi muvaffaqiyat oiladagi, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiya va ta'lim sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi. O'zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qibiliyatlarni bolalar xilma-xil o'yinlarda va mehnatda qo'llaydilar. Bularning hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi. Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his tuyg'ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga yetadiki, u bolaga maktabdagagi muntazam o'qishga o'tish imkonini beradi.

Kichik maktab yoshida asosiy narsa o'qish bo'lib qoladi va uni bolalar ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat sifatida tushinadilar. Bolaning jamiyatdagi yangi mavqeい o'z xatti-harakatini va tengdoshlarining xatti-harakatini o'zgacha nuqtai nazaridan- maktab o'quvchisi nuqtai nazaridan baholashni shart qilib qo'yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko'rsatib, kattalarning uning xulq-atvori va faoliyatiga qo'yayotgan tobora murakkablashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda nutq o'stirish va savodga o'rgatishga oid quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

- Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va so'zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini aniqlash va shakllantirish;
- Unli va undosh tovushlar haqida tushuncha berish;
- Jarangli va jarangsiz tovushlarni ajratishga o'rgatish asosida fonematik idrokni va tasavvurni rivojlantirish;
- Oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlanish;
- Gapni so'zlarga bo'lish, so'zlarni bo'g'lnarga bo'lish;
- Ma'lum tovushlarni o'rmini aniqlash (so'zning boshida, o'rtasida va oxirida);
- so'zda tovushlar ketma-ketligini va sonini aniqlash;
- tovushlardan bo'g'inlar, so'zlar tuzishga o'rgatish;
- tovushlarni eshitishda farqlashga o'rgatish;
- jarangli va jarangsiz undoshlar bilan ishslash kabilar.

Bolani maktabga tayyorlashda nutq o'stirish faoliyatining ahamiyati beqiyosdir. Tarbiyachi bu faoliyatni albatta talablarga mos ravishda tashkil qilishi zarur. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Tarbiyachi metodik jihatdan ishni to'g'ri tashkil etishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan o'yin faoliyati orqali bolalar haftalar bilan o'ynashadi, o'qishga o'rganishadi, so'zlar yozilgan turli

tuman kartochkalardan, yirik bosma shriftlar, chiroyli rasmlardan foydalanishadi. Tarbiyachi doim mehribon, sabr-toqatli, bolani to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishi, o‘zining shaxsiy namunasi bilan nima qilish va qanday qilish kerakligini ko‘rsatishi lozim. U bu yerda ustoz emas, balki voqealarning qatnashchisi sifatida ishtirok etadi, faqat bolalarni qiziqtira olishi lozim. O‘zaro bir-birini tushunish, anglash va muhabbat tuyg‘usi asosida muloqot olib boriladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta’lim tizimining mustahkam poydevori sifatida hamda ilk bo‘g‘in namunasi sanalgan maktabgacha ta’lim tizimidayoq kelajak avlod egalari sanalgan yosh avlodning ilk bilim zahiralarini chuqur va mazmunli qilish darkor. Negaki, ularning bilim poydevori mustahkam bo‘lsa, kelajakda maktab ta’lim tizimida tahsil ola boshlagach, savod o‘rganish davriga yetib borgach shu poydevor asosida qiyinchiliksiz yana ham bilim zahirasini boyitadi.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261 sonli qarori .-T.: 2018-yil 9-sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. Sodiqova SH. A. “Maktabgacha pedagogika” Fan va texnologiya. T.: -2017-yil.
4. Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish darslari. -T.: Manaviyat, 2003.
5. Xalilova D.F. “Bo‘lajak tarbiyachilarining pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv”. PEDAGOGS Jurnali, 7(1),172–175. Retrieved from <http://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/465>
6. Махмутазимова, Ю. Р. (2019). Роль воспитателя в детском саду в формировании личности ребенка. Actual Problems of Applied Sciences Journal World, (3), 24-28.
7. Ways to ensure the active participation of parents in the educational process in preschool education. G.A. Kamalova Oriental Journal of Education 2 (1), 8-15. WAYS TO ENSURE THE ACTIVE PARTICIPATION OF PARENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRESCHOOL EDUCATION ([cyberleninka.ru](http://cyberleninka.ru))